

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2019.Fil.83.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**RASULOVA SOXIBA ULUG‘BEKOVNA**

**AMERIKA ILK ROMANTIZMI PROZASINING TILI VA BADIY  
XUSUSIYATLARI  
(Washington Irving asarlari misolida)**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Rasulova Soxiba Ulug‘bekovna**

Amerika ilk romantizmi prozasining tili va badiiy xususiyatlari  
(Vashington Irving asarlari misolida) ..... 3

**Расулова Сохиба Улуғбековна**

Язык и художественные особенности ранней американской романтической  
прозы (на примере произведений Вашингтона Ирвинга) ..... 23

**Rasulova Sokhiba Ulugbekovna**

Literary language and features of early American romantic prose  
(based on the collection of Washington Irving’s stories) ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 51

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2019.Fil.83.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**RASULOVA SOXIBA ULUG‘BEKOVNA**

**AMERIKA ILK ROMANTIZMI PROZASINING TILI VA BADIY  
XUSUSIYATLARI  
(Washington Irving asarlari misolida)**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil.4597 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Umurova Go'zal Xotamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Samandarov Rustam Do'syorovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7" may soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz.)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61826-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" aprel kuni tarqatildi.  
(2025-yil "22" aprel dagi № 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, (DSc) professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, (DSc) professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligining shakllanishida kuzatilayotgan jarayonda, til unsurlarining ishlatilishi masalasi va bu bilan bog‘liq holda shakllangan nutq masalalariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu sababdan ijodkorlar orasida badiiy asar tilining mavqeyi va qiymatini belgilash, lingvistikada badiiyat va lisonning uzviylikdagi o‘ziga xosligini ochib berish, tanqidiy yondashish, ijodiy o‘rganish har bir xalq adabiyoti va tilshunosligi taraqqiyoti uchun muhim ekanligi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayni davrga qadar adabiyotshunoslik va tilshunoslikda milliy va individual o‘ziga xoslikka, ideal qahramonlar his-tuyg‘ulari ifodasidagi lisoniy masalalarni tasvirlashga intilgan jihatlar keng miqyosda maxsus tadqiqotlarning obyektini tashkil qilmoqda. Badiiy asarlarda aks etgan olamning lisoniy manzarasiga doir asosiy strukturaviy va romantik xususiyatlarni tahlil etish hamda amerika ilk romantizmi prozasining badiiy tili va unga yondosh kategoriyalarini o‘rganish, an’anaviy tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlar ko‘lamining muhimligi ushbu ishning zarurati va dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida badiiy yangilanish jarayoni tafakkur va kognitiv olamning badiiy til konsepsiyasi bilan boyishiga xizmat qilmoqda. Amerika adabiyotining yirik vakili Vashington Irvingning adabiy merosi XXI asrda ham adabiyotshunoslar, tarixchilar, madaniyatshunolarda qiziqish uyg‘otmoqda. Jahon adabiyotshunosligida olib borilgan tadqiqotlar ko‘p sonli bo‘lishiga qaramay, yozuvchi o‘z ijodida qo‘ygan muammolar tadqiqi tugallangan emas. Tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishi Irving ijodini AQSh adabiyotining milliy o‘ziga xosligini shakllantirish kontekstida o‘rganishdir. Globallashuv va multikulturalizm davrida milliy o‘ziga xoslik va milliy madaniyatni saqlab qolish masalalari ayniqsa dolzarbdir. Bundan tashqari, Vashington Irving hikoyalari va romanlarini lingvostilistik tahlil va talqin etishga, stilistik vositalar, axloqiy qarashlar tasvirining lisoniy vositalari masalalari tadqiqiga qiziqish yanada kuchaymoqda. Shu bois ham lisonni insonda, insonni lisonda o‘rganishga bag‘ishlangan lingvistik tadqiqotlarning diqqat e‘tibori ayni muammolar doirasidagi masalalar yechimiga qaratilmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida Sharq G‘arb adabiyotshunosligi va tilshunosligida avvaldan mavjud ilmiy an’analar bilan bir qatorda, o‘zbek tilshunosligidagi lisoniy birliklarning yangicha uslub va yondashuvlarni ijodiy o‘zlashtirish hamda tadqiqotlarda faol qo‘llash tamoyili shakllandi. Shuningdek, mustaqillik davri o‘zbek nasrida lisoniy vositalarning qo‘llanilishi masalasi dunyoni kognitiv anglash, badiiy qayta gavdalantirish, bu borada G‘arbda taraqqiy topgan tamoyillarni o‘zbek kognitiv-estetik an’analarida aks etishining o‘ziga xosliklarini lisoniy hodisalar qurshovida tadqiq etishga katta imkoniyatlar yaratildi. “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e‘tibor – bu, avvalo, xalqimizga e‘tibor, keljagimizga e‘tibor”<sup>1</sup>. Natijada, hozirgi kunda fan taraqqiyoti

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Шавкат Мирмонович. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – Халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир 2 – жилд. Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б 181.

dinamikasining ayni davrigacha romantizm adabiyotida tasviriy vositalar namunalari, adiblari ijodi g'oyaviy-badiiy jihatdan keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, bugungi tilshunoslikdagi yangi, samarali lingvistik tahlil metodlariga tayangan holda Amerika romantizm yo'nalishi ta'sirida yaratilgan badiiy asar til birliklarini, har xil tilga mansub shaxslarning nutqiy muloqotlarini alohida o'rganish zaruriy vazifalardan biri qilib belgilanishi barobarida shunday adabiyot namunalarining til xususiyatlarini va ushbu sohadagi uslubiy yangilanishlar mohiyatini tadqiq qilish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli "Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va tayyorlash to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish chora-tadbirlar to'g'risida" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon bo'ylab keng tarqalgan adabiy oqim – romantizm XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropa va Amerika adabiyotida nihoyatda rivojlandi. O'zining romantik ruhda yaratilgan asarlari bilan Amerika ilk romantizmida salmoqli o'rin egallagan V.Irving ijodi yillar davomida jahon adabiyotshunosligida o'rganilgan. Jumladan, Bruks Van Vik, Dyuknik Evert Avgustus tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur masala M.S.Stevens tomonidan "Ispan oriyentalizmi: Vashington Irving va Mavrlar romantikasi" mavzusidagi tadqiqotda Sharq madaniy merosi, Islom dini, musulmon ahli urf-odatlarining badiiy tasvirlarida til masalasi nomzodlik dissertatsiyasi darajasida o'rganilgan<sup>2</sup>.

Shuningdek, rus olimlaridan V.Vanslov, F.Fedorovlar romantizmni badiiy ijod yo'nalishi sifatida tadqiq etish mobaynida, badiiyatda romantizmga xos asarlar tili muammolarini alohida tahlil qilganlar. V.Irving ijodining umumiy va xususiy muammolari M.N.Bobrova, K.Vanspenkeren, V.L.Parrington, J.R.Murray

---

<sup>2</sup>Brooks Van Wyck. The World of Washington Irving. Kingsport: Dutton, 1944. –P.250; Evert Augustus Duyckinck. Irvingiana: a memorial of Washington Irving. C.B.Richardson, 1860. – P.64; Michael S. Stevens "Spanish Orientalism: Washington Irving and the Romance of the Moors". Dissertation, Georgia State University, 2007.

tanqidiy ishlarida o'rganilgan, V.F.Sherstyuk, E.V.Goroxov, O.Yu.Kloslar<sup>3</sup> Irving badiiy olamini lingvistik tahlil qilishgan.

Mamlakatimizda romantizm, xususan, Amerika ilk romantizmi tili, jumladan, undagi satira va yumor asosida Vashington Irving prozasi o'rganilmagan bo'lsada, romantizm masalalari umummetodologik tizimda ko'rib chiqilgan. Bu masalalar Y.F.Boyoqulov, Q.U.Ko'chimov, N.M.Nuriyeva, H.Karomatov, M.Xolbekov, Q.Azizov, O.Qayumov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbek tilshunosligida Vashington Irving merosini lingvistik tadqiqotlari miqdori katta bo'lsada, adib asarlarining o'zbek tilidagi tarjimasini, uning "Hikoya va afsonalar" to'plami adabiyotshunos Mahkam Mahmudov va boshqa yozuvchi-tarjimonlar tomonidan o'zbek tiliga o'girilgani, shuningdek, bu borada F.Boynazarov, M.Xolbekov va boshqalarning kitob va maqolalari e'lon qilinganini alohida qayd etish lozim.

Vashington Irving ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri, xususan, romantik asarlarining tarixiyligi va tilining badiiy o'ziga xos jihatlari tahlil etilishi, hikoyalarida muallifning satirik va yumorist sifatida o'z talantining yangi qirralarini namoyish qilishi, badiiy nutqda kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalarni, kulgi hosil qiluvchi lingvistik birliklarning ichki aloqadorligi qo'yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun eng muhim zaruriy ilmiy ma'lumot berishini K.Fayziyevaning dissertatsiyasida talqin qilinganini ko'rishimiz mumkin<sup>4</sup>.

Mazkur dissertatsiya ishi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining hozirgi taraqqiyot bosqichida Vashington Irving nasri tilining samimiyligi va mukammalligi, milliy-madaniy leksik birliklarning stilistik vositalari, kinoyaviy nasr, satira va yumorning badiiy jozibadorligini hamda adibning tadqiqotimiz

---

<sup>3</sup> Ванслов В.В. Изобразительное искусство и проблемы эстетики. – Л.: Художник РСФСР, 1975. – 227с; Чепелев В. Искусство советского Узбекистана. – Ленинград: Изд-во Ленингр. обл. союза сов. худ, 1935. – 127с; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Т. 3. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 527 с; Абдуллаева Дж. Б. Традиция и новаторство в творчестве Огюста Вилье де Лиль-Адана. Автореф. дис.канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2000. – 127с; Боброва М.Н. Романтизм в американской литературе XIX века. –Москва: Высшая школа, 1972. – 284 с; Ванспенкерен К. Америка адабиётининг асослари (Таржимон: Ҳамидулла Кароматов). – Тошкент, 1994. – 120 б; Паррингтон В.Л. Основные течения американской мысли, т. II.– Москва: "Изд-во Иностранной литературы", 1962.– 243 с; Murray J.R. A critical analysis of Washington Irving's prose style. Master of arts.1939. – 128 p; Шерстюк В.Ф. Творчество Вашингтона Ирвинга (1806 – 1824): Автореф. дис.канд. филол. наук.–М.,1965.–20с; Горохов Э.В. Романтическое мироотношение в творчестве Вашингтона Ирвинга ("Альгамбра"); О.Ю.Клос Вашингтон Ирвинг в современных исследованиях: в поисках актуальности. Научные статьи.2012. – 6с;

<sup>4</sup>Бобокулов Ю.Ф., Кўчимов Қ.У. XIX аср романтизм ва реализм адабиёти. Жаҳон адабиёти. Ziyouz.com; Нуриева Н.М. Ориентализм в творчестве Вашингтона Ирвинга. Al-Farabi Kazakh National University. Eurasian Journal of Philology: Science and Education. № 3 (167). 2017.– 7 с; Караматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Т.:ЖИДУ, 2008. –665б; Ўроқова О. Шарқ романтизмнинг эстетикаси (тадрижий таҳлил ва замонавий ёндашувлар иерархиясининг фалсафий асослари): Фалсафа фанлари доктори дис. (ДС) автореф. – Самарқанд, 2022. – 72 б; Холбеков М., Мамарасулова Г. Появление представлений в английской литературе. Иностранная филология: язык, литература, образование. № 3 (2) (67). 2018. – 5-9 с; Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи (XVIII-XX асрлар): Пед. Ин-т филол. фак. учун дарслик // Махсус ред. Саломов. Ф. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1987. – 336 б; Маҳмудов М ва бошқ. таржимаси. Вашингтон Ирвинг. Ҳикоя ва афсоналар. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти Тошкент:1930. – 216 б; Бойназаров Ф. Жаҳон адабиёти. Ўқув кўлланма. – Тошкент: «Муסיқа» нашриёти, 2006. – 160 б; Холбеков М.Н. Жаҳон адабиёти классиклари. Ўқув кўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1993. – 112 б; Fayziyeva K.A. Vashington Irving ijodida islomiy motivlarning g'oyaviy poetik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa d-ri diss. (PhD) avtoref. –Buxoro, 2024. –46 b.

uchun tanlab olingan asarlarida lisoniy vositalarni monografik o'rganishga bag'ishlangan birinchi tadqiqotdir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining "Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Vashington Irving badiiy olamining satira va yumor vositasida aks etishida til, uslub hamda badiiyatdagi individual ifoda jihatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Vashington Irving ijodining Amerika romantizm adabiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini ijtimoiy-tarixiy, madaniy muhit bilan bog'liq tarzda yoritish; romantizm adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasini hayoti va ijodi misolida isbotlash;

Irving ijodida tarixiy, madaniy va estetiklikka oid sharqona motivlar talqinida badiiy til imkoniyatlari hamda metafora, ramz va obrazlardan foydalanish mahoratini misollar tahlillari asosida dalillash;

muallif asarlarining tiliga xos bo'lgan satirik va yumoristik xususiyatlarning personajlar nutqida ifodalanishi holatlarini faktik material asosida ko'rsatib berish;

badiiy asarda yozuvchining kognitiv olami bilan personaj nutqi orasida uzviy hamda izchil o'zaro aloqa mavjud ekanini isbotlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Irvingning "Rip Van Vinkl", "Arvoh kuyov", "Iblis va Tom Uoker" hikoyalari, "Al-Hamro" turkumiga kiritilgan "Uch sohibjamol rivoyati" va "Shahzoda Ahmad-al-Komil yoki oshiq qalandar" hikoyalari tanlandi.

**Tadqiqotning predmetini** Amerika adabiyotida romantizmning vujudga kelish sabablari, *satira va yumorning* V.Irving ijodiga xos jihatlarini, *adib asarlaridagi Sharqona* badiiyat malohati ifodasida muhim o'rin tutgan lisoniy tasvir vositalarining tahlili tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-taqqoslash, implikasiya, analogiya, badiiy matn lingvopoetik tahlili, diskurs tahlili kabi metodlar majmui qo'llanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Vashington Irving satirik va yumoristik obrazlar yaratishda mubolag'a, kinoya, tashbeh, istiora, intoq kabi til vositalaridan foydalanganligi asoslangan;

Irving ijodining "Al-Hamro" turkumiga kiruvchi asarlarida *uch qiz farzand*, *shahzoda* va *malika*, *xoja* va *xizmatkor* kabi sharq motivlari talqinida badiiy tilning arxaizm, istorizm, professionalizm singari stilistik vositalarini qo'llaganligi isbotlangan;

Vashington Irving asarlari tiliga xos bo'lgan tansiq as-sifat (bir necha jihatdan tasvirlash), jonlantirish, mubolag'a, intoq kabi lingvopoetik vositalarning personajlar nutqida takroriylik hamda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni tasvirlashda tarixiy va badiiy haqiqat uyg'unligini tarixiy shaxslar obrazi talqinida ochib berilgan hamda hayotiylik va haqqoniylikning kuchliligi dalillangan;

muallif asarlarida qahramonlar taqdiriga bevosita dahldor demokratik ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hamda sokin, halovatli, betashvish o'tmish va jadal, ilg'or, notinch kelajak o'rtasidagi ziddiyatli farqlar ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Vashington Irving mubolag'a, kinoya, tashbeh, istiora, intoq kabi til vositalarini satirik va yumoristik obrazlar yaratishda mahorat bilan qo'llaganligi tahlillar misolida asoslangan;

muallifning "Al-Hamro" asarida tarixiy, madaniy va estetikaga oid sharqona motivlarni tasvirlashda metafora, ramz va obrazlar badiiy tilning muhim stilistik vositalari ekanligi aniqlangan;

tansiq as-sifat, jonlantirish, kinoya kabi asar tiliga xos bo'lgan lingvostilistik vositalarning personajlar nutqida ifodalanishi, davr ijtimoiy-siyosiy hodisalarining tarixiy haqiqat va badiiy reallik jihatlari tarixiy shaxslar talqinida hayotiy haqqoniylik, tasavvur va obrazlarda berilganligi isbotlangan;

yo'zuvchining kognitiv olami uzviyligi va izchilligi badiiy asarda insonlar hayoti va taqdiriga daxldor ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar, o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi farqlar kabi ziddiyatli jihatlari hamda personajlar xarakteri va qismati ularning ruhiyati ifodasi vositasida asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tanlangan tekshiruv obyektlariga yondashib, foydalanilgan lingvistik metodlarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga izchil asoslanganligi, foydalanilgan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikrlar va ularga munosabat bildirilishi, erishilgan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, ularning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan dalillanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, til birliklarining tafakkur birliklarini aks ettirishi insonning aqliy olami va uning nutqi o'rtasidagi doimiy aloqani ko'rsatib berishda namoyon bo'ladi hamda Vashington Irving hikoyalari o'zaro muvofiqlik holatlarini aniqlash va badiiy asar tahlilini til vositalari bilan bog'liq holda talqin etish yo'li va imkoniyatlarini belgilashda to'laqonli ingliz madaniy xususiyatlarini yoritish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalardan o'quv kurslarida, jahon adabiyotidan darsliklar, dissertatsiyalar yaratishda, shuningdek, ingliz tili va adabiyoti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga maxsus kurslar o'qitishda, Amerika adabiyotining tarjimai jarayonida yordam beruvchi qo'llanma yoki tarjimonlar uchun lingvistik uslubiy tavsiyalar sifatida ham foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Amerika ilk romantizmi prozasi badiiy xususiyatlari va tili Vashington Irving ijodini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Vashington Irving satirik va yumoristik obrazlar yaratishda mubolag'a, kinoya, tashbeh, istiora, intoq kabi til vositalaridan foydalanganligi asoslanganligi bo'yicha Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Computational linguistics at Central Asian universities" grant loyihasi doirasida tilshunoslikdagi kompyuter lingvistikasiga oid atamalarning ijtimoiy-siyosiy leksik xususiyatlarini aniqlashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet

tillar institutining 2024-yil 26-iyundagi 1303/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalar matnida til va nutq, lisoniy-ijtimoiy muhit personajlar tabiatining shakllanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi dalillangan. Shuningdek, ijtimoiy-etik qarashlar, qahramonlar va adib o'rtasidagi biografik o'xshashlik xususiyatlari til vositalari bilan bog'liq holda tasvirlanishi ochib berilgan;

Irving ijodining "Al-Hamro" turkumiga kiruvchi asarlarida *uch qiz farzand, shahzoda va malika, xoja va xizmatkor* kabi sharq motivlari talqinida badiiy tilning arxaizm, istorizm, professionalizm singari stilistik vositalarini qo'llaganligi isbotlanganligi haqida Yevropa Ittifoqining "TEMPUS" dasturi Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" loyihasi doirasida dissertatsiya bo'yicha erishilgan natijalari va ishlab chiqilgan tavsiyalaridan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 26-iyundagi 1305/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, prozaning tili va uslubi o'rganilayotgan jarayonda til tarqqiyotining derivatsion qonuniyatlari inobatga olinishi asarlaridagi badiiy tasvirlar, satira va yumorning ilmiy asoslab berilgani o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida jahon adabiyotining ta'sirini aniqlashga xizmat qilishi ushbu loyihani boyitishga asos bo'lgan;

Vashington Irving asarlari tiliga xos bo'lgan tansiq as-sifat, jonlantirish kabi lingvopoetik vositalarning personajlar nutqida takroriyliigi hamda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni tasvirlashda tarixiy va badiiy haqiqat uyg'unligini tarixiy shaxslar obrazi talqinida ochib berilib, hayotiylik va haqqoniylikning kuchliligi dalillanganligi bo'yicha Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida dissertatsiya ilmiy xulosalari va ilmiy natijalaridan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 26-iyundagi 1304/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiq etilgan mavzu doirasida badiiy tasvirlar xususiyati lingvistik, matndagi madaniy tamoyillar lingvokulturologik va asardagi sharqona mavzularning badiiy-estetik xususiyatlari yozuvchi shaxsiy dunyoqarashidagi o'zgarishlar, turli ijtimoiy-tarixiy qarashlar to'qnashuvi kabi omillar ta'sirida asarlarda hayot haqiqatlari lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari, struktural qirralari til birliklarining funksional aspekti bilan bog'liqligi ochib berilishiga erishilgan;

muallif asarlarida qahramonlar taqdiriga bevosita dahldor demokratik ijtimoiy- siyosiy o'zgarishlar hamda sokin, halovatli, betashvish o'tmish va jadal, ilg'or, notinch kelajak o'rtasidagi ziddiyatli farqlar ochib berilgan xulosalaridan O'zbekiston MTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi ko'rsatuvlarida foydalanilgan (O'zbekiston MTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-iyuldagi 01-07/190 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, Irving asarlarida ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni qahramonlarning taqdiri va ruhiy holatiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishi orqali, u zamonaviy va tarixiy davrlar o'rtasidagi keskin farqlarni yoritishi ko'rsatuv ssenariysini ilmiy va ommabop ma'lumotlar bilan boyitilishiga zamin yaratdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 18 ta ilmiy-amaliy anjumanlardagi ma’ruzalarda, jumladan, 14 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 8 ta maqola, jumladan xorijiy jurnallarda 4, respublika jurnalida 3 ta maqola e’lon qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 138 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Amerika ilk romantizmi va Vashington Irving ijodi davri**” deb nomlangan bo‘lib, to‘rt fasldan iborat. Ushbu bobda Amerika romantizmi davrining muhim jihatlari, Amerika ilk romantizmi prozasining vujudga kelishi va taraqqiyoti, bu davr prozasining shakllanishida Vashington Irving ijodining o‘rni va yozuvchi nasriy asarlari lingvositistik xususiyatlarining nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Bobning birinchi fasli “Amerika adabiyotida romantizm davri tavsifi” deb nomlangan va bunda Romantizm davrining Amerika adabiyotida tutgan o‘rni izohlab berilgan; romantizm turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo‘lishi yoritilgan hamda romantik asarlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. XVIII asrning 70-yillarida Yevropada romantizm adabiyoti shakllanib, shu davrda Yevropaning boshqa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Avstriya, Daniya, Shvetsiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha)ga ham kirib bordi. Milliy mustaqillik g‘oyasining yetakchilik qilishi ma’rifatparvarlik an’analaridan yuz o‘girmagan AQSHda ham romantizmning rivoj topishiga imkoniyat yaratdi. Romantizm, shuningdek, Osiyo mamlakatlari (Hindiston, Xitoy, Yaponiya) adabiyotida ham o‘ziga xos ifodasini topdi. Biroq, O‘rta Osiyo mamlakatlarida romantizm, Yevropa mamlakatlari adabiyoti va san’atidagi singari, izchil adabiy oqim sifatida shakllanmadi. XIX asrning 20-yillaridagina romantizm fransuz adabiyotidan o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Ushbu faslda Amerika adabiyotida romantizm vakillarining yorqin obrazlarni tasvirlashga – real olamdan ko‘ra mukammalroq hayoliy olam yaratishda, o‘z orzusidagi go‘zal hayotni aks ettirishda lisoniy masalalarini talqin etishiga e’tibor qaratildi. Dunyoni aql-idrok yordamida qayta qurish mumkinligiga ishonmagan shoirlar avlodi (U.Vordsvort, S.T.Kolrij, R.Sauti) insonning botiniy hissiyotiga chuqurroq kirishni targ‘ib qildilar.

Yuqoridagi mulohazlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, romantizm g'ayri-ixtiyoriylik, ijodiylik va o'ziga xoslik yetishmaydigan madaniy muhitlarga qarshi ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi. Albatta, romantik davrning ilk va yirik asarlari inson tabiati va fe'l-atvori xususiyatidagi ma'ruzalar, manifestlarni mavjudligi ko'zga tashlanadi. Zero, S.T.Kolrijning "Adabiy biografiya" ("Biographia Literaria"), P.B.Shellingning "She'riyat mudofaasi" ("Defence of Poetry"), U.Vordsvortning "Lirik balladalar" ("Lyrical Ballads") va "Muqaddima" ("Preface") sini bunga misol qilish mumkin. Yuqoridagi nasriy asarlarda romantik shoirlarning dunyoqarashlari naqadar keng qamrovli ekanligi yana bir bor isbot etiladi. Ushbu tadqiqot doirasida romantiklarning eng oddiy kundalik voqealar, his-tuyg'ular va tajribalarni kutilmagan, noodatiy hollarda ifoda etish nazariyasini kuzatish mumkin.

Bobning "Amerika ilk romantizmi prozasining shakllanishi" nomli faslida Amerika romantizmida muhim hisoblangan muammolar izohlab berilgan. Ma'lumki, Germaniyada vujudga kelib, tezda Angliya, Fransiya va o'zga o'lkalarda tarqalgan Romantizm harakati Amerikaga ham yetib bordi. Amerika adabiyotidagi romantizm 1775-1783-yillarda Qo'shma Shtatlarda yuz bergan inqilob tufayli maydonga keladi. Yevropa mamlakatlari adabiyotiga ta'sir ko'rsatgani kabi fransuz burjua revolyutsiyasi (1789-1794) AQSH adabiyotida romantizm yo'nalishining kelib chiqishiga inqilobiy turtki bo'ladi<sup>5</sup>.

XIX asrning birinchi yarmida Amerika Qo'shma Shtatlari o'z mustaqilligi uchun kurashda g'alabani qo'lga kiritdi. Garchi bu mustaqillik xalq ommasining ishtiroki orqali amalga oshgan bo'lsa-da, xalqning o'zi bundan bahramand bo'la olmadi. G'alabani natijalaridan yirik sanoatchilar, yer-mulk egalari foydalandilar. Binobarin, Yevropada bo'lgani kabi Amerikada ham yangicha sof oqim – romantizm yo'nalishi san'at va ziyolilar ahlini to'liqlantiradi. Biroq, bir muhim farqni ham nazarda tutish lozimki, Amerikadagi adabiy romantizm davlat hududlarining kengayishi va Amerikaning o'ziga xos ovozi kashf etish davri bilan uyg'unlashdi. Shu sababli Romantizm aksariyat Amerika shoirlari va nosirlari uchun ijobiy mutanosib oqim edi.

N.Hotorn ta'biri bilan aytganda romantik qarash, "romans" – hikoyaning balandparvoz, ehtirosli va ramziy shaklidir<sup>6</sup>. Zero, romanlar sevgi qissasi emas, balki murakkab ma'nolarni ifodalash uchun maxsus vositalardan foydalanilgan jiddiy hikoyalardir. Mazkur tasnif asosida kuzatilganda, Amerika romanslarining tipik bosh qahramoni o'z o'ylariga g'arq, shakllangan shaxsdir. N.Hotornning "Skarlet maktubi"dagi Artur Dimmisdeyl yoki Gester Prinn, H.Melvilning "Mobi Dik" idagi Axav va Po qissalaridagi ko'plab yakkalangan va savdoyi xarakterlar ko'rinishida aks etadi<sup>7</sup>. Shuningdek, Romantizm nazariyasiga binoan o'zligini rivojlantirish asosiy mavzuga, o'zligini anglamoq esa asosiy uslubga aylandi<sup>8</sup>.

Ishning "Amerikada ilk romantizm prozasining shakllanishi va Vashington Irving ijodi" nomli faslida Vashington Irvingning Amerika adabiyoti taraqqiyotiga

<sup>5</sup>Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи (XVIII-XX асрлар): Пед. Ин-т филол. фак. учун дарслик // Махсус ред. Саломов. Ф. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1987. – 336 б.

<sup>6</sup> Ванспенкерен К. Америка адабиётининг асослари (Таржимон: Ҳамидулла Кароматов).Тошкент,1994.–Б 23.

<sup>7</sup> Ванспенкерен К. Америка адабиётининг асослари (Таржимон: Ҳамидулла Кароматов).Тошкент, 1994.– Б 37.

<sup>8</sup> О'sha joyda.

qo‘shgan ulkan hissasiga e‘tibor qaratilgan. Ulug‘ Amerika adibi Mark Tven uni ustoz deb tan olgandi. Ayni chog‘da, Mark Tvenning ko‘plab yumoristik hajviyalari Vashington Irving ijodini esga soladi<sup>9</sup>. Binobarin, o‘lkani insoniylashtirish, unga nom va qiyofa baxsh etish hamda afsonalar yaratish bobida hech kim yozuvchi Vashington Irvingga teng kela olmagan. Biz ham mazkur tadqiqotda Vashington Irvingning adabiy asarlari ilk romantizm prozasini yaratish bobida o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etish maqsadida keng fantaziyali hikoyalarga murojaat qildik.

Irving har doim an‘anaviy janrlarga ijodiy yondashuvi bilan boshqalardan farqlangan. Ya‘ni yozuvchi an‘anaviy janrlarga xos qonunlarni buzib, mavjud cheklovlar qobig‘ini yorib o‘tgan. Amerika haqiqatlaridan foydalanish asosida Irvingning “Rip Van Vinkl”, “Arvoh kuyov”, “Uyqu vodiysi haqida afsona” kabi novellalari 1819 yilda nashr etilib, “Chizgilar kitobi”dan o‘rin olgan. Bu romantik novellalarda Amerikaga dastlab borganlar hayoti, u yerdagi odam oyog‘i yetmagan o‘rmonlar yozuvchining keng fantaziyasi bilan qo‘shiladi; Irving asarlarida xalq afsonalari, diniy xurofotlari realistik hayot lavhalari bilan uyg‘unlashib ketishi orqali aks etadi<sup>10</sup>. Masalan “Arvoh kuyov”, “Xazina izlovchilar”, “Al-Hamro” kabi hikoyalari bunga misol bo‘la oladi.

Irqi, millatidan qat‘iy nazar barcha amerikaliklar Vashington Irvingni sevib o‘qiydi. U Amerikaga ko‘chib borgan yevropaliklar hayoti haqidagina emas, balki Amerikaning tub aholisi haqida ham ancha-muncha asarlar yozganligi ma‘lum. O‘sha paytlarda Afrika va Osiyodagi ko‘pgina davlatlar inglizlar qo‘l ostida bo‘lib, Afrikadan qoratanlilar, Osiyodan musulmonlar ham Amerikaga olib kelingandi. Shu nuqtai nazardan qaralsa, adib Amerikada yashayotgan qoratanlilar, musulmonlar hayotini tasvirlashni ham e‘tibordan chetda qoldirmadi. Vashington Irvingning ko‘pchilik hikoyalari yozuvchining sayohatlari davrida eshitgan afsona va rivoyatlar asosida yaratilgan. Ayni jihatdan uning “Arvoh kuyov” hikoyasi o‘quvchi e‘tiborini beixtiyor o‘ziga tortib, sehrlab olilishi bejiz emas, chunki bunda arab-ispn madaniyatining mushtarak badiiy tasviri o‘z ifodasini topgan.

Manbalarga qaraganda, Vashington Irving o‘zi xristian diniga mansub bo‘lsa ham, musulmon dunyosiga bir qadar xayrixohlik bilan qaraydi. O‘sha davrlarda arab mamlakatlaridan qul sifatida olib kelingan kishilardan turli-tuman hikoyalar eshitib, ularni badiiylashtiradi. “Al-Hamro” kitobiga kirgan “Uch sohibjamol rivoyati”, “Arab munajjimining rivoyati”, “Shahzoda Ahmad-al-Komil yoki oshiq qalandar” nomli badiiy-falsafiy asarlarida sharqona ishq falsafasini o‘z bilganicha talqin etadi, “Al-Hamro guli” yoki mahram va lochin qissasi”, “Mavrning vasiyati” kabi hikoyalarda arablarning donishmandligi haqida so‘z yuritadi.

Vashington Irving “Muhammad hayoti” asarida ham tarixchi, ham yozuvchi sifatida ish ko‘radi. Tarixchi sifatida sahro arablarininng yashash tarzi haqida ilmiy manbalar asosida ma‘lumot beradi. Yozuvchi payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ning dono, aqlli, donishmand kishi bo‘ganligini xayrixohlik va ixlos bilan ta‘riflab, muhim manbalarni keltirib o‘tadi. Shu o‘rinda alohida aytish joizki, ushbu asar jahondagi ko‘pgina tillarga tarjima qilingan<sup>11</sup>.

<sup>9</sup> Бойназаров Ф. Жахон адабиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Муסיқа» нашриёти, 2006. – Б 63-65.

<sup>10</sup> Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи (XVIII-XX асрлар): Пед. Ин-т филол. фак. учун дарслик // Махсус ред. Саломов. Ф. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1987. – 129 б.

<sup>11</sup> Бойназаров Ф. Жахон адабиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «Муסיқа» нашриёти, 2006. – Б 63-65.

Bobning “Washington Irvingning nasriy asarlari talqini” deb nomlangan faslida Washington Irving nasriy asarlari rang-barang janr va mavzularda yaratilganligi hamda ularning hazil-mutoyiba aralash o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Yosh Irvingning kitobga qiziqishi kuchli edi. U yigitlik davrida Spenserni, Choserni ko‘p mutolaa qilgan. Bolalik va o‘smirlik chog‘larida Qadimgi Dunyo adabiyoti uning yozuvchilik didini rivojlantirdi va unda Yevropa madaniyatiga ehtirom va muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi. 1804-yil Irving Yevropaga boradi va Italiya, Shvetsariya, Angliya, Gollandiya, Fransiyaning janubiga hamda Parijga sayohat qiladi. Yevropada ikki yil bo‘lishi yosh Irvingning Yevropa adabiyoti haqidagi bilimlarini boyitdi, mustahkamladi, uni Yevropa madaniyati va adabiyoti muxlisiga aylantirdi.

Yuqoridagi fikrlarga batafsil nazar solganimizda Irving Yevropa romantizmidan ta’sirlanib, o‘z ijodida fantaziya, ruhiyatni ochish, sir salqash, qo‘rquv uyg‘otish kabi holatlarda bosh qahramonlarning xarakterini ochish uchun foydalandi. Uning “Arvoh kuyov”, “Iblis va Tom Uoker”, “Sirli kema” va boshqa hikoyalarda yuqoridagi ta’rifda keltirilgandek qo‘rquv epizodlari aks etadi.

Irving o‘z novellalari badiiy shaklining o‘ziga xos xususiyatlarini baholaganda haq edi: yaxlitlik, bir butunlik, hayratlanarli darajada xilma-xil individual komponentlar bilan uyg‘unlashish. Bu xususiyatlar chindan uning novellasini musiqiy simfoniya bilan taqqoslash imkonini beradi.

Qayd etish kerakki, Romantizmning muhim xususiyatlaridan yana biri asar sujetida fantaziya, ajoyib-g‘aroyib voqealarning real voqealarga qorishib ketishidir. Irving o‘z davridagi nasrning eng yaxshi xususiyatlarini ijodida romantizmga kirish bilan boshlaydi, xayoliy-fantastik ibtidoning realizm bilan uyg‘unligi, kundalik-oddiy hodisaning asta-sekin sehrgarlikka aylanib borishi – Irvingning doimiy fazilatlaridandir. Uning “Rip Van Vinkl” novellasida bosh qahramonning bir kechalik uyqusida hayotda 20 yil o‘tganlik holatida tasvirlash vositalarini tahlil qilish natijasi yuqorida keltirilgan fikrlarni ochib berildi.

Dissertatsiyaning **“Romantizmدا satira va yumor. Washington Irving hikoyalarda satira, yumor va sharq motivlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch faslni o‘z ichiga olib, bobda hajviy asarlarda satira va yumorni yuzaga chiqarish, Washington Irving ijodida satirik va yumoristik kulgini badiiy usullarda ifodalanishi, tarixiy-madaniy jihatlari va afsonaviy asosi tadqiq etilgan.

Mazkur bobning “Satira va yumorning romantizmdagi o‘rni” nomli faslida tilshunoslikda satira va yumorning ifoda tasvir vositalari, satirik va yumoristik romanlarda ta’sirchanlikning tahliliga e’tibor qaratildi. Yevropa Uyg‘onish davrida barcha sohalarda bo‘lgani kabi satira va yumorda ham jonlanish kuzatiladi. O‘sha davrda yaratilgan, bugungi kunda ham o‘z estetik qiymatini zarracha yo‘qotmagan, ijtimoiy kulgining qudratli kuchini o‘zida ifoda etgan satira va yumor asarlari – Jovanni Bokachchoning “Dekameron”, Servantesning “Don Kixot”, Shekspir komediyalari insoniyat tarixidagi yovuzlik, zulm va istibdodga, o‘z umrini yashab bo‘lgan, yangilikning o‘shiga to‘sqinlik qilayotgan ijtimoiy tartiblarga qarshi qaratilgan dahshatli kuch bo‘lib keldi, xalq ommasining hayotdagi adolatsizliklarga qarshi g‘azab-nafratini ifoda qildi. XVII-XVIII asrlarda yashab ijod etgan ma’rifatparvarlar D.Didro, Mari Fransua Arue (Volter), Sh.L.Monteske, J.Svift kabi ijodkorlar satirik asarlar mumtoz namunalarini yaratdilar.

Rus adabiyotida, jumladan, satira va yumorning mohiyatiga doir nazariyani yoritishda N.G.Chernishevskiy, N.V.Gogol, V.S.Kurochkin, D.D.Minayev, M.Jemchujnikov, G.N.Julayev, M.Baxtin, Jan-Pol, S.T.Rixter, L.Pinskiy, A.Borev, V.N.Propp, M.E.Saltikov-Shedrin, O.Dome, F.Goyya va Angliyada J.Swift, Samuel Batler, Jon Drayden, Aleksandr Pope, Richard Stil, Genri Filding va Uilyam Xogartning, Fransiyada esa Lafonten, J.B.Molyer va M.Volter satirani yuksak bosqichga ko'tardilar. Bu davrning amerikalik satiriklari orasida Vashington Irving, Jeyms Rassell Louell, Oliver Vendell Xolms va Mark Tvenlarni ko'ramiz.

O'zbek adabiyotida satira janri dastlab xalq ijodida, keyinchalik yozma adabiyotda taraqqiy etgan. Ko'p asrlik o'zbek satirasi taraqqiyotiga Navoiy, Turdi, Sadridin Ayniy, Maxmur, Gulxaniy, Hoziq, Muqimiy, Zavqiy, Hamza, Abdulla Qodiriy, G'ozil Yunus, So'fizoda, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Ne'mat Aminov, S.Siyoyev singari shoir va yozuvchilar salmoqli ulush qo'shdilar. Satira tasviriy san'atda ham qadimdan ma'lum. Qadimgi Rim, Xitoyda satirik terrakota haykallar, vazalarga satirik tasvirlar va boshqalar ishlangan. Bu rassomlik san'ati (jumladan, grafika)da rivojlangan. F.Goyya, O.Dome, X.Bidstrup va boshqa rassomlar ijodi dunyo satirasi rivojida muhim rol o'ynagan. O'zbekistonda satira taraqqiyotiga "Mushtum" jurnali, "Jangovar qalam", "O'zTAG oynasi" katta hissa qo'shgan<sup>12</sup>.

Yuqorida aytib o'tilganidiki, satira va yumor kulgiga asoslanadi. Kulgining tabiati o'ziga xos, uning turlari juda ko'p. Mashhur rus adibi L.N.Tolstoy kulgining 96 turi haqida ma'lumot bergan. Satira (hajv) – o'tkir kulgi, zaharxanda, kesatish, masxara qilishga xizmat qiladi<sup>13</sup>. O'tkir achchiq kulgi – hajv, yengil, "chuchuk" kulgi – yumor sanaladi. Yuqoridagi mezonlardan kelib chiqqan holda satira va yumorning ta'sirchanligi (kitobxonning qalbiga yetib borishi) ijtimoiy hayotning faqatgina salbiy tomonlarini ochib tashlashdan iborat bo'lib qolmasdan, u o'quvchiga o'sha illatlar bilan qanday kurashish yo'llarini ham ko'rsatib berishi kerak. Mavjud tuzumdagi qalloblik va poraxo'rlik, munofiqlik, zulm va zo'ravonlik, firibgarlik, umuman, jamiyat rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi barcha illatlar ba'zan yumorga, ba'zan satiraga zamin bo'lib turadi. Tabiiyki, ijodkorning badiiy mahorati shulardan eng muhimlarini topish va uni rang-barang hayotiy lavhalar, psixologik kechinmalarni haqqoniy va real tasvirlashida ko'rinadi.

Komiklikning asosiy turlaridan biri sifatida satiraning yumordan farqi shundaki, u o'z obyektida ayrim nuqsonlar, tuzatsa bo'ladigan kamchiliklarni emas, balki butunlay tanqid va inkor etiladigan mohiyatni – jamiyat va uning taraqqiyoti uchun jiddiy zarar keltiradigan, ijtimoiy xavfli illatlarni ko'radi. Shu bois satira tuzatishni emas, butunlay yo'qotish maqsadini qo'yadi, yumor esa tuzatishni nazarda tutadi.

Bobning "Vashington Irving hikoyalarida satira va yumor masalasi" nomli bo'limida Irving asarlarida satira va yumor adabiy vositalariga *kinoyaning bog'liqlik xususiyatlari* tahlil qilingan. Uning ijodiy merosidagi satirik va

---

<sup>12</sup>Ўзбекистон Миллий Энциклопедик луғати "С" ҳарфи, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" – Тошкент. Давлат илмий нашриёти. [https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20S%20harfi.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20S%20harfi.pdf)

<sup>13</sup> Toshpo'latova N., Isomiddinova M. Publisistika fanidan o'quv uslubiy qo'llanma. –Toshkent, 2019. – B.89.

yumoristik hikoyalarining tili va uslubi ravon, sodda, obrazli, xalqchil va tushunarlilik xususida mulohazalar yuritilgan. Irving amerika adabiyoti tarqqiyotiga yumoristik hajviyalarining tili va ifodasi bilan katta hissa qoʻshgan ulkan adibdir. Hazilomuz epik asarlarda siyosiy yoki ijtimoiy oʻzgarishlarni amalga oshirish yoki hatto oldini olish uchun uslubiy zeb berilgan ehtiroslar va ramziy iboralar satiraning oʻrinli vositalari ishlatiladi.

Izlanishlarimiz shuni koʻrsatadiki, Jonatan Oldstayl (Jonathan Oldstyle) taxallusi ostida 1802-1803-yillar qishda “Morning Kronikl” (Morning Chronicle) da paydo boʻlgan istehzoli ocherklarni yozuvchi qalamining sinovi boʻldi deyish mumkin. Ular Irving tomonidan hurmatga sazovor boʻlgan ingliz maʼrifatchilarining, ayniqsa, Stil va Edison singari satirik hamda axloqiy jurnallarini yaratuvchilarning yozuvchi taʼsirini koʻrsatadi. V.F.Sherstyuk “V.Irving ijodi (1806–1824)” nomli dissertatsiyasida “Jurnalning eng qiziqarli va muhim qismi bu – siyosiy satiradir” deb taʼkidlaydi<sup>14</sup>. Xuddi shu tadqiqotchining fikriga koʻra, “Nyu-York tarixi” asari xuddi “Salmagundi” singari ingliz maʼrifatchiligining satirik va yumoristik anʼanalarini boshqa yoʻnalishda Amerika zaminida davom ettiradi<sup>15</sup>.

Vashington Irving qalamiga mansub “Iblis va Tom Uolker” hikoyasi satirik asarning yaxshi namunasi boʻlib, asar Tom va uning xotini munosabatlaridagi xudbinlik, ochkoʻzlik, oʻz manfaati yoʻlida andisha-mulohazalarga bormay surbetlarcha ish tutish, odamlarni amal kursiga qarab munosabat koʻrsatish kabi yaramas illatlar tanqidiga bagʻishlangan.

Hikoyada badiiy mazmuni tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan.

*“Tom’s wife was a tall termagant, fierce of temper, loud of tongue, and strong of arm. Her voice was often heard in wordy warfare with her husband; and his face sometimes showed signs that their conflicts were not confined to words.”<sup>16</sup>*

*“Tomning xotini oʻtaketgan mijgʻov va shallaqi, ezma va qoʻli bexosiyat edi. Koʻpincha uning eri bilan adi-badi aytishib, chinqirayotgan ovozi eshilib turar, uning afti-basharasining momataloq boʻlib koʻkarib yurishidan bu xil gʻidi-bidilar faqat qargʻishu baqiriqlar bilan cheklanib qolinmasligi koʻrinib turardi”.*(Tarjima oʻzimizniki R. S)

Muallif tomonidan personajlarga xos xususiyatlarni hayotiy tasvirlash, fosh etuvchi satira tasvirda asosiy oʻrinda turadi.

Asardagi qaygʻuli va achchiq satiraga moyil yana bir misol bu Tomning oʻz xotini oʻlimiga munosabati: *“Tom consoled himself for the loss of his property with the loss of his wife, for he was a man of fortitude. He even felt something like gratitude towards the black woodman, who, he considered, had done him a kindness”<sup>17</sup>.*

*“Mol-mulkidan ajralgan Tom sabr-toqatli kishi boʻlgani uchun xotinidan judo boʻlsa ham gʻamga berilmadi. Oʻziga bir muncha xizmati singganidan u qora iblisdan hatto minnatdor ham boʻlganday boʻldi”.* (Tarjima oʻzimizniki R. S)

<sup>14</sup> Шерстюк В.Ф. Творчество Вашингтона Ирвинга (1806 – 1824): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Москва, 1965. – С.20.

<sup>15</sup> Шерстюк В.Ф. Ўша асар. –Б.13.

<sup>16</sup> <https://www.thomas.k12.ga.us/userfiles/257/Classes/2694/thedevilandtomwalker.pdf>

<sup>17</sup> <https://www.thomas.k12.ga.us/userfiles/257/Classes/2694/thedevilandtomwalker.pdf>

Tom xotining jasadini topganda nafaqat fojiaga befarq edi, balki u mijg'ov ayolidan ozod qilgani uchun iblisdan minnatdor ham bo'ldi.

Bobning "Washington Irving asarlarida Sharqona motivlarning yaratilishi" deb nomlangan faslida V.Irving ijodidagi romantik sharqona motivlarni aniqlash, ularning adib ijodidagi ahamiyatini ko'rsatib berish, muayyan xususiyatlarni tahlil qilish maqsad qilingan. Ushbu faslning ilmiy ahamiyati V.Irving asarlaridagi badiiy tasvirlarni yanada mukammalroq o'rganish, uning romanlaridagi Sharqona motivlar tadrijini tavsiflashdan iborat. Mavzuni yoritishda adib asarlarining til xususiyatlarini hamda asosiy yo'nalishlarini ochib berishga imkon tug'diruvchi qiyosiy-tarixiy yondashuvga murojaat etdik.

Washington Irving 1826-yilda Amerika diplomatik vakillari a'zosi sifatida Ispaniyaga boradi. Madrid shahrida bo'lgan adib mamlakatning o'tmishi, ijtimoiy va etnografik hayot tarzi bilan qiziqadi. Mamlakat arxivida o'zini qiziqtirgan masalalar yuzasidan ish olib borar ekan, Irving juda katta ishtiyoq bilan Ispaniya she'riyatini o'rgana boshlaydi. Shu tariqa Irvingda Sharq hayoti va madaniyatiga bo'lgan munosabat uyg'onadi. Chunki ilk o'rta asrlarda Ispaniyaning musulmonlar tomonidan boshqarilishi to'g'risidagi haqiqiy tarix manzaralardan guvohlik beruvchi manbalar bilan tanishadi. O'rta asrlarda Ispaniyaning musulmon madaniyatiga bag'ishlangan ko'plab asarlarda arab-ispan madaniyati davrining badiiy tasviri tahlil qilingan edi.

Irving "Granada yilnomasi"ni yozib boshlar ekan, o'zidan oldingi mualliflardan farqli ravishda, adolatli va adolatsiz urush, insoniyat kecha, bugun va ertaga kabi savollarga murojaat etib, o'z qarashlarini bayon etadi. Bunda Irving faqatgina ispan-arab urushlarini tasvirlashni maqsad qilmaydi. Muallif, ushbu mavzuga murojaat etar ekan, o'ziga xos nuqtai nazar bilan tarixiy voqelikka insoniyat muammolari bilan nazar solishga intiladi va buni ijtimoiy, falsafiy, tarixiy hamda siyosiy jarayonlarda ifoda etish va tahlil qilishga urinadi. Washington Irving tarixiy hujjatlar, ispanlar tomonidan Granadaning zabt etilishi mavzusidagi ajoyib san'at asarini yozishda Ispaniyaning tarixiga oid asarlardan foydalandi.

Washington Irvingning Sharqona asarlari ichida "Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) va uning izdoshlari hayoti" (*The Life of Mahomet and his Successors*, 1849-50) asarida, Islom dini asoschisi Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotlariga doir tarixiylik va badiiylik qonunlari asosidagi tadqiq mavjud. Muallifning asosiy maqsadi ingliz o'quvchisiga Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayotlari va islom dini uchun bo'lgan kurashlarning tub mohiyati haqida ma'lumot berishdan iborat edi<sup>18</sup>.

Irving Al-humro saroyiga tashrifi chog'ida saroydagi real voqealarni ko'rsatish uchun "Al-Hamro" turkumiga kiruvchi o'tkir sujetli sharqona motivdagi sarguzasht hikoyalarni yaratdi. Asarda badiiy tasvir vositalaridan, xususan, mubolag'adan unumli foydalanilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Washington Irving hikoyalarida satira va yumor: til, badiiy tasvir hamda uslubiy yechim**" deb nomlangan va uch fasldan tashkil topgan. Bunda badiiy asar tili va lingvistik tavsifi xususida, shuningdek,

---

<sup>18</sup> Henry A. Pochmann; E.N.Feltskog. Irving Washington. Mahomet and His Successors. The Complete Works of Washington Irving. Madison: The University of Wisconsin Press. 1970. – 651 p.

Washington Irving hikoyalaridagi sharqona muhitni yaratadigan satira va yumorning sintaktik, leksik-semantik va stilistik jihatlari tahlil qilingan.

Ushbu bobning “Badiiy asar tili va uning lingvistik tavsifi xususida” nomli faslida badiiy asar tiliga munosabat tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi barobarida yozuvchi mahorati, stili haqida, til birliklarining nutqda real qo‘llanishi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Badiiy adabiyot tilini o‘rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko‘pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir.

